

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10858888>

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMYIY FAOLIYATINI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

**Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir guruh kesimida ta'limiy faoliyatlarning to'g'ri tashkil qilishning ahamiyati va uni bola hayotidagi o'rni haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Faoliyat, sog'lom turmush tarsi, xulk- atvorni, gigiyena, analiz.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье говорится о важности правильной организации образовательной деятельности и ее роли в жизни ребенка в государственных и негосударственных организациях дошкольного образования.*

**Ключевые слова:** *Активность, здоровый образ жизни, поведение, гигиена, анализ.*

### ABSTRACT

*This article talks about the importance of proper organization of educational activities and its role in a child's life in state and non-state preschool education organizations.*

**Keywords:** *Activity, healthy lifestyle, behavior, hygiene, analysis.*

Sogʻlom turmush tarzi - bu oqilona kun tartibi qoidalariga rioya qilish, toʻgʻri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanish, zararli odatlardan saqlanish va chiniqishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi boʻlgan davr bolaning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda uning salomatligi va jismoniy rivojlanishiga, harakat madaniyatiga zamin yaratiladi. Shuning uchun ham bolalarning rivojlanishida kun tartibi, chiniqtirish, harakatli oʻyinlardan oqilona foydalanish kabi masalalarga jiddiy eʼtibor berish lozim.

Kun tartib ertalabki soatdan boshlanadi. Ertalabki soatda qilinadigan pedagogik ishning asosiy vazifasi bolalarda, tetik, quvnoq kayfiyat uygʻotishdir. Bolalar faoliyatining boshka turlari (oʻkuv, oʻyin, mehnat) bilan bir qatorda xayotiy faoliyat maktabgacha tarbiya yoshdagi bola shaxsining tarkib topishida katta oʻrin egallovchi kator xususiyatlarga ega. Bu faoliyat turi tarbiyaviy taʼsirning doimiy sohasidir. Bolalar jamoasi bilan, kattalar bilan oʻzaro munosabatda, xatti- harakatlarda, kechinmalarda bola shaxsi yaqqol namoyon boʻladi. Xayotiy faoliyat bolani axlokiy xatti-harakatlar boʻyicha sistemali va davomli mashq qildirish, ularda odat hamda madaniy- gigiena malakalarini tarbiyalash, qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va takomillashtirish, xulq va xarakterning u yoki bu salbiy hislatlarini bartaraf etish uchun xilma-xil sharoitlar yaratadi.

Moddiy muhitni tashkil etish muhim moment hisoblanadi. MTTda hamma narsa bolalarning mustaqilligini rivojlantirishga, ularning faolligidan foydalanishga va ilk yoshdan oʻz- oʻziga xizmat qilishga oʻrgatib borishga moslashtirilgan boʻlishi kerak.

Bolalarning hayot faoliyatini toʻgʻri tashkil etishning toʻgʻri shartlaridan biri kundalik rejimga aniq rioya qilishdir.

MTTdagi kun tartibi bolalar hayotining mazmunli oʻtishini, ularning xilma-xil xarakterdagi faoliyatining aniq tashkil etilishini hamda izchillik bilan almashinib turishini taʼminlashi mumkin.

Faqat pedagogik nuqtai nazaridan tashkil etilgan barcha rejim jarayonlarigina madaniy xulk- atvorni shakllantirishga nerv sistemasini ehtiyot qilishga yordam beradi.

Vazmin sharoitga tashqi taqiqlar bilan emas, balki guruhdagi xayot uslubi, muomala ohangi orqali erishiladi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarning xatti-harakati kandy choralar bilan tartibga solinib turishiga e'tibor berishi kerak: Tarbiyachi ular oqilona talablar, sistemasi yordamida uyushqoqlikka, o'zini tiya bilishga namuna ko'rsata olishga o'rgatib boradi. Tarbiyachining qo'ygan talablari bolalarning yoshiga mos bo'lishi lozim. Biroq —rejim aslo saf bo'lib marshirovka qilish bilan mahkamlanmasligi kerak. Sherenga komanda, marsh bilan yurish... bular hammasi eng kam foyda keltiradigan formalardir va ular jamoani jiplashtirishdan ko'ra ko'proq bolalarni jismoniy ham psixik jihatdan toliqtiradil.

Bolalarning hayot faoliyatini tashkil etishni analiz qilishning taxminiy sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Kuzatish ob'ekti (uyqu, ovqatlanish, yuvinish, yechinish, chiniqtirish, kundalik rejimga rioya qilish va xokazo).
2. Hayotiy faoliyatini tashkil etish uchun sharoitlar (moddiy muhit, talablarning birligi va hokazolar).

Tarbiyachi har kuni ertalabki soatda bolalarni birlamchi tibbiy ko'rik asosida qabul qiladi (bu kundalik rejada yozilmay, alohida daftarda qayd etiladi), ota-onalar bilan suhbat olib boradi, badantarbiya mashqlarini o'tkazadi (har oyda 2 kompleks badantarbiya mashg'ulotlari yoziladi). Kundalik faoliyat bayoni (reja)da ertalabki soatda tarbiyachi bolalar bilan belgilangan mavzu yuzasidan suhbat uyushtirishi ko'rsatiladi.

Asosiy o'rin bolalarning o'yin faoliyati uchun ajratiladi. Ijodiy o'yinlar, talimiy o'yinlar, tinch o'yinlar (mozaika, lego, domino, loto, pazl, qurish-yasash)ni tashkil etish rejalashtiriladi.

Bolalarning mustaqil faoliyati mazmuni rejada to'liq ochib berilmaydi, u bolaning qiziqishi va kayfiyatiga bog'liq. Har bir bola erkin holda o'zi istagan faollik

markazini tanlashi va u yerda ishlashi mumkin, tarbiyachi bolalarni kuzatadi va zarur hollarda yordam ko'rsatadi.

Mehnatda kundalik navbatchilikdan tashqari mehnatsevarlikni tarbiyalashning to'rt xil vazifasi (o'z-o'ziga xizmat, maishiy mehnat, tabiatdagi mehnat, qo'l mehnati)dan biri rejalashtiriladi.

Bolalar bilan yakka tartibda ishlash mashg'ulotda o'zlashtirilmay qolgan bolalar bilan ishlash demakdir. Bolalar bilan yakka ishlash uchun tarbiyachilar talimiy o'yinlar, amaliy mashqlar to'plamlarini tayyorlashlari kerak. Bu materiallarga asoslanib, bolalar bilan yakka ishlash yaxshi samara beradi.

Rejada qaysi bolalar bilan, qanday mavzularda yakka tartibda ishlash aniq ko'rsatiladi.

Har qanday tarbiyachi ertalab ishga kelganida bolalarning uylariga taassurotlari, yutuqlari va hissiyotlari, dildagi gaplarini kimgadir aytish istaklari to'lib-toshib borayotganligini sezadilar.

Ko'p hollarda bolalar ushbu yangiliklarni tarbiyachilariga yurgan yo'llarida gapirib beradilar. Bu holatni bee'tiborga olib, ertalabki davra suhbatlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega deb o'ylaymiz. Rejada suhbatlarning mavzulari aniq ko'rsatilishi va manaviyatga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bolalarning turmush tartibi doimiy bo'lishi kerak. MTTdagi rejaning buzilishi odat tusini olgan xulq sitemasining buzilishiga olib keladi. Bu ularda juda og'ir kechadi.

Bolalarning hayot faoliyatini tashkil etish sharoitlarini muhokama qilganda enaga va tarbiyachilarning guruhdagi vazifasini (ovqatlanish, uyqu, suv protseduralari va hokazalarni tashkil etish) to'g'ri taksimlashga alohida e'tibor berish kerak.

Xodimlar vazifalarining aniq taqsimlanishi rejimning bajarilishini ta'minlaydi.

**ADABIYOTLAR**

1. Abdiev.A. —Kitob dunyosil – ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy gazeta. 2017 yil 24 may
- 2 ZaporjetsA. V. Psixologiya vospriyatiya skazki rebenkom — doshkolnikom. — Doshkolnoe vospitanie, 1948, No 9, s. 34 — 41.
3. Mesheryakov B. G, Zinchenko V.P. Bolshoy psixologicheskiy slovar. Praym-yevroznak, 2003.— 632 s.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun —Ilk qadam davlat o‘quv dasturi -T 2022y
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802 qarori -T 2020y 22-dekabr